



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-sentabr

613-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 594-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 18-sonli farmoni hamda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 8-apreldagi 136-sonli qarori ijrosini ta‘minlash hamda qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali qishloq xo‘jaligi subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 -moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 594-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorning ijrosini hududlarda samarali tashkil qilish uchun tuzilgan viloyat Shtabi tarkibi **1-ilovaga**;

- chorva mollarini parvarishlash va saqlash, yengil konstruksiyali issiqxonalar va muzlatkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash joylari, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari qurilmalari va hovuzlari, transformator stansiyalari, muqobil energiya inshootlari, dala shiyponi, texnika parki va boshqa ruxsat etilgan obyektlar joylashtirilgan (qurilgan) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘orilmaydigan yerlar hamda yer fondining boshqa toifalari tarkibidagi maydonlarni xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan viloyat Ishchi guruhi tarkibi **2-ilovaga**;

- tuman (shahar)lar **namunaviy ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar foydalanish turiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi yerlariga va qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi yerlarga hamda suv bilan ta‘minlanish darajasiga ko‘ra sug‘oriladigan yerlarga va sug‘orilmaydigan yerlarga bo‘linishi;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘orilmaydigan yerlarda ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasiga muvofiq yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo‘lgan obyektlarni joylashtirishga (qurishga) yo‘l qo‘yilishi, bunda mazkur yerlar ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasiga asosan, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi yerlar sifatida O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga muvofiq hisobga olinishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 18-sonli farmoniga muvofiq “E-auksion” savdo platformasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha elektron onlayn-auksion savdolarida g‘olib bo‘lgan yer ijarachilari yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga muvofiq dehqonchilik yo‘nalishida erkin faoliyat yuritishi;

fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarining ixtisosligi yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga muvofiq aniqlanishi;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘orilmaydigan yerlarda yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo‘lgan obyektlarni joylashtirishdan (qurishdan) oldin tegishli axborot tizimlari orqali ariza beruvchida ushbu maydoniga ijara huquqining mavjudligi, davlat yer kadastr bo‘yicha yer maydonining jami maydoni, shundan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ular tarkibidagi sug‘oriladigan yerlar maydoni tekshirilishi;

ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasida yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo‘lgan obyektlarni yer maydoni tarkibidagi sug‘orilmaydigan yerlarga joylashtirish (qurish) nazarda tutilishi;

yengil konstruksiyali qurilmalar va vaqtincha qurilmalar joylashtirishni (qurishni) nazarda tutuvchi ichki xo‘jalik yer tuzish loyihalari tumanlar (shaharlar) hokimlari tomonidan, kapital bino va inshoot hisoblangan qurilish obyektlarini joylashtirishni (qurishni) nazarda tutuvchi ichki xo‘jalik yer tuzish loyihalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan tasdiqlanishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan tasdiqlangan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘orilmaydigan yerlarda yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga

mos bo'lgan obyektlarni joylashtirishni (qurishni) nazarda tutuvchi ichki xo'jalik yer tuzish loyihasi Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarori bilan tasdiqlangan qurilish sohasiga oid ma'muriy reglamentlarga muvofiq davlat xizmatlarini ko'rsatish, obyektlarni qurishga ruxsat beruvchi hujjatlarni olishda yer maydoniga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinishi;

obyektlar joylashtirilgan (qurilgan) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlar alohida yer maydoniga bo'linmaydi, joylashtirilgan (qurilgan) obyektlarni alohida sotishga ruxsat etilmaydi (yer maydonining foydalanish maqsadini o'zgartirmagan holda unga bo'lgan huquq va majburiyatlarni obyekt bilan birga boshqa shaxsga o'tkazilishi (qayta ijara berish) holatlari bundan mustasno);

chorvachilik yo'nalishlarida ijaraga berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlarda ichki xo'jalik yer tuzish loyihasiga muvofiq 1 gektardan ko'p bo'lmagan, biroq ijaraga berilgan kontur maydonining bir foizidan oshmagan qismida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlarni (chorva mollarini parvarishlash va saqlash, yengil konstruksiyali muzlatkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash joylari, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari qurilmalari va hovuzlari, transformator stansiyalari, muqobil energiya inshootlari, dala shiyponi, texnika parki hamda foydalanish maqsadlari bo'yicha kapital qurilish obyektlarining klassifikatorida nazarda tutilgan boshqa obyektlar) joylashtirishga ruxsat etilganligi;

chorvachilikdan boshqa yo'nalishlarda ijaraga berilgan yerlarda yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan obyektlarni (yengil konstruksiyali issiqxonalar va muzlatkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash joylari, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari qurilmalari va hovuzlari, transformator stansiyalari, muqobil energiya inshootlari, dala shiyponi, texnika parki hamda foydalanish maqsadlari bo'yicha kapital qurilish obyektlarining klassifikatorida nazarda tutilgan boshqa obyektlar) joylashtirishga (qurishga) yo'l qo'yiladigan yer maydoni 20 sotixdan, biroq ijaraga berilgan kontur maydonining bir foizidan oshmasligi;

yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan obyektlarni joylashtirishga (qurishga) yo'l qo'yiladigan ayni bir yer maydoni bir marta belgilanadi, kelgusida ushbu obyekt turini o'zgartirishga xizmat ko'rsatuvchi yer maydonini oshirmaslik sharti bilan yo'l qo'yilganligi;

tumanlar (shaharlar) hokimlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan tasdiqlangan ichki xo'jalik yer tuzish loyihasi davlat yer kadastrida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yer maydonini qishloq xo'jaligi yeridan qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yer sifatida hisobga olish uchun asos bo'lishi;

ijaraga berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydoni qishloq xo'jaligi yeridan qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yerga o'zgartirilgan taqdirda, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'zni yer maydonining o'zgargan qismi bo'yicha yer ijarachisi tomonidan qoplanishi;

qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlar joylashtirilgan (qurilgan) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlar yer fondining boshqa toifasiga o'tkazilmaydi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar toifasidagi yerlar sifatida hisobga olinmasligi va xususiylashtirilmasligi;

qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlar joylashtirilgan (qurilgan) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlarga nisbatan yer solig'i miqdori 2026-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun belgilangan tartibda hisoblanishi;

Vazirlar Mahkamasining "Yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanish turlari va kapital qurilish obyektlarining yagona klassifikatorini amalga kiritish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 30-sentabrdagi 614-sonli qaroriga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Viloyat davlat Soliq boshqarmasi (A.Inagamov), viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasining birinchi o'rinbosari (R.Norbo'tayev), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining viloyat boshqarmasi (S.Sodiqov), Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (R.Payziyev) tuman (shahar)lar ishchi guruhlari bilan birgalikda 2025-yil 1-dekabrga qadar:

chorva mollarini parvarishlash va saqlash, yengil konstruksiyali issiqxonalar va muzlatkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash joylari, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari qurilmalari va hovuzlari, transformator stansiyalari, muqobil energiya inshootlari, dala shiyponi, texnika parki va boshqa ruxsat etilgan obyektlar joylashtirilgan (qurilgan) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlar hamda yer fondining boshqa toifalari tarkibidagi maydonlarni xatlovdan o'tkazsin;

xatlov natijalariga ko'ra bunday turdagi yerlarni qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yerlar sifatida hisobga olish, zaruratga ko'ra yer fondi toifasini o'zgartirish masalasini hal qilish, yer solig'i miqdorini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sifatida belgilash bo'yicha qaror qabul qilish uchun Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga kiritsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari X.Qoraboyev zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev

Toshkent viloyati hokimining
2025-yil 29-sentabrdagi
613-10-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga
mo‘ljallangan yerlardan foydalanish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish
tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2025-yil 18-sentabrdagi
594-sonli qarori ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul etib belgilangan
VILOYAT SHTABI TARKIBI**

№	Ismi, familiyasi		Lavozimi
1.	Qoraboyev Xurshid Abduvahobovich	-	Viloyat hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, shtab rahbari
2.	Inagamov Alovitdin Xusnitdinovich	-	Viloyat Soliq boshqarmasi boshlig‘i
3.	Norbo‘tayev Rovshan	-	Viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
4.	Sodiqov Sodiq	-	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining viloyat boshqarmasi boshlig‘i
5.	Payziyev Rustam	-	Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi boshlig‘i
6.	Anvarov Jaxongir	-	Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i
7.	Do‘sbekov Shuxrat	-	Viloyat Fermerlar kengashi rahbari
8.	Akramov Islom	-	“Uzdavyerloyiha” Toshkent viloyati bo‘linmasi boshlig‘i
9.	Ashirov Farxod	-	Viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari
10.	Raupxodjayev Ravshan	-	“Toshkent hududiy elektr tarmoqlari” AJ bosh direktori
11.	Tillaxodjayev Atabek	-	Toshkent viloyati qurilish nazorati inspeksiyasi boshlig‘i

Toshkent viloyati hokimining
2025-yil 29-sentabrdagi
613-10-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Chorva mollarini parvarishlash va saqlash, yengil konstruksiyali issiqxonalar va muzlatkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash joylari, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari qurilmalari va hovuzlari, transformator stansiyalari, muqobil energiya inshootlari, dala shiyponi, texnika parki va boshqa ruxsat etilgan obyektlar joylashtirilgan (qurilgan) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlar hamda yer fondining boshqa toifalari tarkibidagi maydonlarni xatlovdan o'tkazish bo'yicha

ISHCHI GURUH TARKIBI

№	Ismi, familiyasi		Lavozimi
1	Qoraboyev Xurshid Abduvahobovich	-	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari–qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i, Ishchi guruh rahbari
2	Norbo'tayev Rovshan	-	Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
3	Sodiqov Sodiq	-	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspektiyasining viloyat boshqarmasi boshlig'i
4	Payziyev Rustam	-	Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i
5	Qurbonov Baxtiyor	-	“Chirchiq Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i
6	Do'sbekov Shuxrat	-	Viloyat Fermerlar kengashi rahbari
7	Otaboyev Xojiakbar	-	Viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
8	Akramov Islom	-	“Uzdaverloyiha” Toshkent viloyati bo'linmasi boshlig'i
9	Raupxodjayev Ravshan	-	“Toshkent hududiy elektr tarmoqlari” AJ bosh direktori
10	Anvarov Jaxongir	-	Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i
11	Tillaxodjayev Atabek	-	Toshkent viloyati qurilish nazorati inspektiyasi boshlig'i
12	Yusupaliyev Javlon	-	Agrosanoatni rivojlantirish agentligi direktori
13	Ashirov Farxod	-	Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining

			o‘rinbosari
--	--	--	-------------

Toshkent viloyati hokimining
2025-yil 29-sentabrdagi
613-10-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Tuman (shahar)larda tuzilgan namunaviy
ISHCHI GURUH TARKIBI**

№	Ismi, familiyasi		Lavozimi
1	Lavozimi bo'yicha	-	Tuman (shahar) hokimi
2	Lavozimi bo'yicha	-	Hokimning Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari
3	Lavozimi bo'yicha	-	Hokimning qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari
4	Lavozimi bo'yicha	-	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining tuman (shahar) bo'limi boshlig'i
5	Lavozimi bo'yicha	-	Kadastr agentligining tuman (shahar) bo'limi boshlig'i
6	Lavozimi bo'yicha	-	Tuman (shahar) Veterinariya bo'limi boshlig'i
7	Lavozimi bo'yicha	-	Tuman (shahar) "Suv yetkazib berish xizmati" DM boshlig'i
8	Lavozimi bo'yicha	-	Tuman (shahar) Fermerlar kengashi rahbari
9	Lavozimi bo'yicha	-	Tuman (shahar) elektr tarmoqlari korxonasi rahbari
10	Lavozimi bo'yicha	-	Tuman (shahar) Qurilish bo'limi boshlig'i
11	Lavozimi bo'yicha	-	Tuman (shahar) Qishloq xo'jaligi bo'limining yer masalalari bo'yicha mutaxassisi